

# 1500 dona manzarali ko'chatlar ekildi

O'simliklar dunyosi hayot uchun zarur kislorodning asosiy manbai. Tevarak atrofimizdagи turli xil daraxtlar nafaqat muhitni chang va zararli gazlardan tozalaydi, balki insonga o'zgacha ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi. Respublikamizning turli hududlarida o'tkazilayotgan "Ko'chat ekish" aksiyalarining asosi ham atrof-muhitni ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirishdir.

Joriy yil 4-mart kuni O'zR FA Yadro fizikasi instituti sanitariya himoyalash maydonida Mirzo Ulug'bek tumani hokimligi, tuman prokururaturasi, Ichki ishlар bo'limi hamkorlikda "Ko'chat ekish" aksiyasi o'tkazildi.



Aksiyada tuman hokimligi mutasaddilari, tuman prokururaturasi hamda IIB xodimlari, mahalla faollari, mакtab o'quvchilari ishtiroy etishdi. Aksiya ishtirokchilari FA Yadro fizikasi instituti sanitariya himoyalash maydoniga 1500 dona manzarali daraxt ko'chatlarini ekishdi.



Ushbu aksiyani o'tkazishda yaqindan ko'mak bergen Mirzo Ulug'bek tumani hokimligi, O'zR Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasiga o'z minnatdorchiligidizni bildiramiz.